

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.B.70.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

NASRIDINOVA MEXRINISO RAXMATULLAYEVNA

QARSHI VOHASIDA LAMIACEAE LINDL. OILASIGA MANSUB
AYRIM DORIVOR O‘SIMLIKLARNING INTRODUKSIYASI

03.00.05 – Botanika

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Nasriddinova Mexriniso Rahmatullayevna

Qarshi vohasida Lamiaceae Lindl. oilasiga mansub ayrim dorivor

o‘simliklarning introduksiyasi 5

Насриддинова Мехринисо Рахматуллаевна

Интродукция некоторых лекарственных растений семейства

Lamiaceae Lindl. в Каршинский оазис 21

Nasriddinova Mekhriniso Rakhmatullaevna

Introduction of some medicinal plants of the family Lamiaceae Lindl.

in the Karshi oasis 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.B.70.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

NASRIDINOVA MEXRINISO RAXMATULLAYEVNA

QARSHI VOHASIDA LAMIACEAE LINDL. OILASIGA MANSUB
AYRIM DORIVOR O‘SIMLIKLARNING INTRODUKSIYASI

03.00.05 – Botanika

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi - 2023

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.1.PhD/B271 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www:qarshidu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www:ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yoziyev Lutfullo Habibullayevich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Duschanova Guljan Madrimbayevna
biologiya fanlari doktori, professor

Turgunov Mirabdulla Dexkanovich
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi Ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.06.2020.B.70.03 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "_____" soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil:180103 Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti 2-binosi, 202-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103 Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail:qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "_____" kuni tarqatildi
(2023 yil" _____" dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Q.Qurbonov

Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash raisi,
biologiya fanlari doktori, professor

Sh.A.Samatova

Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

L.S.Kuchkarova

Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
biologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida inson ehtiyoji uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan dorivor o'simliklardan oqilona foydalanilmaganligi natijasida tabiiy zaxiralarining kamayishiga olib kelmoqda va o'simliklar tabiiy populyatsiyalarining qayta tiklanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, dorivor o'simliklarga antropogen omillar ta'sirining ortishi natijasida mazkur o'simliklar tabiiy maydonlarining qisqarishiga olib kelmoqda. Shundan kelib chiqib, dorivor o'simliklar populyatsiyalarini muhofaza qilish, mahalliy florani introdutsentlar bilan boyitish va ularni madaniy holda ko'paytirish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda dorivor o'simlik turlarini topish, ularni turli iqlim sharoitlarida bioekologik xususiyatlarini o'rganish va fitokimyoviy tahlil qilish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, tibbiyot, kosmetika va oziq-ovqat sanoati uchun iqtisodiy jihatdan ahamiyatli hisoblangan efir moyli o'simlik turlarini turli iqlim sharoitlariga introduksiya qilish, yangi sharoitda adaptatsiya imkoniyatlarini o'rganish, o'sish, reproduktiv va dorivorlik xususiyatlarini saqlab qolishini hamda tarkibidagi efir moyining sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarini baholashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda aholiga sifatli dori-darmon vositalari yetkazib berish uchun xizmat qiladigan farmatsevtika korxonalarini ko'paytirish va ularni dorivor o'simliklar xom ashyolari bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "... o'rmon fondi yerlarida dorivor o'simliklar plantatsiyalari maydonlarini 4 984 gektarga yetkazish" vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifadan kelib chiqqan holda respublikamizning arid hududlarida dorivor o'simliklarni introduksiya qilish, introduksiya sharoitida ularning o'sishi va rivojlanishi, tarkibini o'rganish va ko'paytirishning ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 20-maydagi PF-139-son "Dorivor o'simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 26-noyabrdagi PQ-4901-son "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, suv muammolari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi", V. "Tibbiyot va farmakologiya" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Lamiaceae Lindl. oilasi vakillarining introduksiya sharoitlarida biologiyasi va fitokimyoviy tahliliga qaratilgan tadqiqotlar xorijlik olimlar R.Morales (2002), I.Boz, L.Navarro, R.Gale (2009), B.M.Amador, A.N.Garibay va boshqalar (2013), A.A.Vallverdu-Queralt, J.Regueiro, M.Martinez-Huelamo (2014), G.A.Lazkov (2016), M.Chetouani, I.Mzabri, A.Aamar va boshqalar (2019) tomonidan olib borilgan.

MDH mamlakatlarida Lamiaceae oilasi vakillarini bioekologik xususiyatlari Moskva sharoitida Y.Y.Gogina (1990), Novosibirsk sharoitida Y.V.Baykova (2005), Saratov sharoitida M.V.Kanayev (2008), Stavropol o'lkasida A.S.Nikitina (2008), Xakasiya sharoitida Y.B.Kolegova (2010), Chechenistonda M.U.Djambetova (2013), Rossiyaning qoraturproqsiz hududlarida L.V.Kalinichenko (2013), Voronej sharoitida O.V.Gladisheva (2016), Moskva sharoitida Al Karavi (2018)lar tomonidan o'rganilgan.

O'rta Osiyo florasiga mansub Lamiaceae oilasi vakillarining taksonomiyasi, ontogenetik strukturasi, geografiyasi, ekologiyasi va tabiiy zaxiralariga doir tadqiqotlar A.M.Maxmedov (1991), A.Q.Axmedov (2018), N.S.Abdullayeva (2020), M.X.Akbarova (2021), R.K.G'ulomov (2022) tomonidan olib borilgan. P.A.Nesterenko (1935), S.N.Kudryashov (1936), N.A.Toshmatova (1981), Y.M.Murdaxayev (1992), S.F.Ulugova (2022)lar tomonidan tadqiqot uchun tanlangan dorivor turlarning ayrimlarini Toshkent sharoitida bioekologik xususiyatlarini o'rganishga doir tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq ushbu tadqiqot ishlari O'zbekiston hududida Lamiaceae oilasining tadqiqot uchun tanlangan dorivor vakillarining bioekologik xususiyatlari haqida to'liq ma'lumotlarni bera olmaydi. Shunga ko'ra, Qarshi vohasi sharoitida Lamiaceae oilasining dorivor vakillarini introduksiya qilish, ushbu sharoitda tanlangan turlarning bioekologik xususiyatlarini o'rganish, ko'paytirishning samarali usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarga muvofiq №ITD-9-18 "Yuksak manzarali ekzotik daraxt, butalar va noyob gullarni Qarshi sharoitiga introduksiya qilish, ularni ko'paytirish metodlari va parvarishlash agrotexnikasini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qarshi vohasiga Lamiaceae oilasiga mansub ayrim dorivor turlarni introduksiya qilish, bioekologik xususiyatlarini aniqlash va ko'paytirishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Lamiaceae oilasi ayrim turlarini ontogeneznining turli bosqichlarida o'sish va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish;

o'simliklarning morfobiologik xususiyatlarini aniqlash;

gullash va urug' hosil qilish biologiyasini o'rganish;

introduksiya sharoitida ko'paytirishning samarali usullarini ishlab chiqish;

introduksiya sharoitida o'simliklarda hosil bo'lgan efir moy tarkibini tahlil qilish;

ekologik omillarga munosabatini aniqlash va introduksion baholash.

Tadqiqotning obykti sifatida Lamiaceae Lindl. oilasiga mansub ayrim dorivor vakillari – *Thymus vulgaris* L., *Salvia officinalis* L., *Hyssopus officinalis* L., *Rosmarinus officinalis* L. olingan.

Tadqiqotning predmeti Lamiaceae oilasining ayrim dorivor vakillarining introduksiyasi, ontogenezi, biomorfologiyasi, fenologiyasi, antekologiyasi va ko'paytirish usullari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borish jarayonida dala, fenologik, biomorfologik, biokimyoviy, introduksion baholash va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

introduksiya sharoitida o'simliklar ontogeneznining dastlabki yillarida intensiv o'sib rivojlanishi, 3-4 yoshida asosan III-IV tartibli novdalari hisobiga mo'l biomassa hosil qilishi, *R. officinalis* ning kuzgi-qishki-bahorgi, qolgan turlarning esa bahorgi-yozgi-kuzgi fenoritm guruhiga mansubligi asoslangan;

gullash dinamikasi va uning davomiyligi mavsumning ob-havo sharoitiga bog'liq bo'lgani holda, tabiiy sharoitda orttirilgan xususiyatlari ham saqlab qolinganligi aniqlangan;

Th. vulgaris va *H. officinalis* urug'lari mahsuldorligi ancha past, *S. officinalis* niki biroz yuqori, *R. officinalis* niki yuqori ekanligi, bu ko'rsatkich o'simliklarning yoshi oshib borishi bilan ko'tarilishi ochib berilgan;

yozning issiq va quruq havosi *Th. vulgaris*, *H. officinalis*, *S. officinalis* larning o'sishi va rivojlanishini keskin pasaytirishi, qish faslining iqlim sharoiti *R. officinalis* ning reproduksiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan;

o'simliklarda hosil bo'lgan efir moylari tarkibidagi dorivor komponentlar miqdori va sifatini qiyosiy tahlil qilish asosida boshqa sharoitda o'sgan o'simliklarga nisbatan komponentlar sonining ko'payganligi, ayrim komponentlar miqdorining ham oshganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'simliklar urug'larining biologiyasi o'rganilgan, urug'lar unishi uchun optimal harorat hamda Qarshi vohasi sharoitida urug'larning mahsuldorligi va unuvchanlik darajasi oshganligi aniqlangan;

Qarshi vohasi sharoitida o'stirilgan o'simliklarda efir moylarning hosil bo'lish darajasi va sifatining yuqoriligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ishni bajarishda zamonaviy introduksion, biomorfologik va biokimyoviy usullardan foydalanilganligi, olingan natijalarni nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, to'plangan materiallar matematik statistika usulida qayta ishlanganligi, olingan xulosalarning asoslanganligi hamda tegishli muhokamalardan o'tganligi, natijalarning respublika, xalqaro anjumanlarda muhokamasi, shuningdek, retsenziyalangan ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Lamiaceae oilasi ayrim vakillarining Qarshi vohasi sharoitida ontogeneznining turli davrlarida o'sishi va rivojlanishi, turli vegetatsiya yoshida o'simliklarning shoxlanish xususiyatlari o'rganilganligi, gullashning dinamikasi va davomiyligi, urug'lar mahsuldorligi ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'rmon xo'jaliklari yerlarida keng masshtabli plantatsiyalar tashkil qilish uchun zarur hisoblanib, urug'larni tinim davrini, unuvchanligini, ekishning optimal muddatlarini aniqlanganligi, shuningdek, ko'paytirishni samarali usullari ishlab chiqilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qarshi vohasi sharoitiga introduksiya qilingan Lamiaceae oilasining ayrim dorivor vakillarining bioekologik xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o'rganilgan turlarning introduksiya sharoitida ko'paytirish va parvarishlashning samarali usullari O'zR FA Botanika instituti huzuridagi akad. F.N. Rusanov nomidagi Toshkent Botanika bog'ining "Dorivor o'simliklar introduksiyasi" laboratoriyasiga qarashli dorivor o'simliklar ekspozitsiyasi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2022-yil 09-dekabrda 4/1255-3112-son ma'lumotnomasi). Natijada "Dorivor o'simliklar introduksiyasi" laboratoriyasida dorivor o'simliklar tirik kolleksiyasini yaratish va dorivor o'simliklar fondini boyitish imkonini bergan;

Qarshi vohasi sharoitida biomorfologik ko'rsatkichlari, urug'lari sifati, mahsuldorligiga doir natijalar va ko'paytirishning samarali usullariga doir tavsiyalardan Qashqadaryo viloyati o'rmon xo'jaligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining 2022-yil 14-dekabrda 04/38-6883-son ma'lumotnomasi). Natijada Qashqadaryo viloyati sharoitida ushbu dorivor turlar plantatsiyalarini yaratish uchun samarali ko'paytirish, efir moyini olish maqsadida xom ashyo terish muddatlarini belgilash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 1 ta xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning asosiy matni 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, ishning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiyotlar sharhi, hududning tabiiy sharoiti, tadqiqot obyekti va metodlari**" deb nomlagan birinchi bobi uchta bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limda tadqiqot obyektlari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari to'g'risida ilmiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlar yoritilgan.

Ikkinchi bo'limi Qarshi shahrining tabiiy-iqlim sharoitiga bag'ishlangan bo'lib, unda adabiyotlardan olingan ma'lumotlar asosida vohaning relyefi, iqlimi – ob-havoning mavsumiy ko'rsatkichlari, yog'in miqdori, havoning nisbiy namligi va haroratiga oid ma'lumotlar, tuproq sharoitlari yoritilgan.

Ushbu bobning uchinchi bo‘limi tadqiqot obyektlari va metodlariga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqot obyektlariga Al.A.Fedorov, Z.T.Artyushenko ko‘rsatmalari asosida (1986, 1990) mahalliy sharoitda o‘sgan o‘simliklar misolida botanik tavsif berilgan. Turlarning nomlari S.K.Cherepanov (1995), The Plant List va Plantarium elektron bazasi yordamida aniqlangan. O‘simliklarning ontogenezini o‘rganishda T.A.Rabotnov(1960), biomorfologik tadqiqotlarda I.G.Serebryakov (1952, 1962), fenologik kuzatishlarda I.N.Beydeman (1960) metodlaridan foydalanilgan. Gullash biologiyasi A.N.Ponomaryov (1960), O.A.Ashurmetov, H.Q.Qarshiboyev (1995, 2003)lar, urug‘lash biologiyasi M.K.Firsova (1959), I.V.Vaynagiy (1974), «Методические указания по семеноведению интродуцентов» (1980), R.Y.Levina (1981), O.A.Ashurmetov va X.K.Qarshiboyev (1982, 2002, 2003)larning ko‘rsatmalari asosida o‘rganilgan. Qarshi vohasi sharoitida o‘stirilgan o‘simliklar tarkibidagi efir moyi G. Gunther (1961) bo‘yicha ajratib olingan va xromato-mass-spektrometrik tahlil qilingan. Introduksiya natijalari I.V.Belolipov (1976)ning 5 balli (6 ko‘rsatkichli) shkalasi asosida baholangan. Yangi sharoitda o‘simliklarning havo haroratiga munosabatini vizual o‘rganilgan. To‘plangan ma’lumotlar G.N.Zaytsev (1991)ning matematik statistika metodi hamda *Microsoft Excel, Statistica* dasturlari asosida qayta ishlangan.

Dissertatsiyaning “**Lamiaceae oilasi ayrim vakillarini ontogenezining davr va bosqichlarida o‘shish va rivojlanish xususiyatlari**” deb nomlangan ikkinchi bobi ham uchta bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda tadqiqot obyektlarining ontogenezini latent (sm – urug‘lar), virginil (p – maysa, j – yuvenil, im – immatur, v – voyaga yetgan virginil), generativ (g – generativ) davrlarda o‘rganish natijalari keltirilgan. Unga ko‘ra, Qarshi vohasi sharoitida *Salvia officinalis*, *Hyssopus officinalis*, *Rosmarinus officinalis* ontogenezining dastlabki yilida maysa, yuvenil, immatur va virginil bosqichlarni o‘taydi. *Thymus vulgaris* esa umrining dastlabki yilda generativ davrga o‘tishga ulguradi (*1-rasm*).



1-rasm. O‘simliklar umrining dastlabki yilida ontogenez bosqichlari davomiyligi

Yuvenil davr boshqa turlarga nisbatan *R. officinalis*da uzoq – o‘rtacha 68 kun davom etgan. Bu davr qolgan uchala turda qisqa – 14-16 kun davom etgan. *Th. vulgaris*ning voyaga yetgan virginil bosqichi nisbatan qisqa – o‘rtacha 80 kun davom etgani holda, bu ko‘rsatkich qolgan ikkita turda 132-138 kunni tashkil qilgan. *R. officinalis*ning voyaga yetgan virginil bosqichi eng uzoq davom etadi. Bu tur umrining ikkinchi yilini voyaga yetgan virginil bosqichda o‘tkazadi. Qarshi vohasi sharoitida *Th. vulgaris* ontogenezining dastlabki yilida, *H. officinalis* va *S. officinalis* ikkinchi yilida, *R. officinalis* uchinchi yilida generativ davrga o‘tishi, o‘rganilgan turlar umrining oltinchi yilida ham subsenil davrga o‘tmaganligi aniqlangan.

Bobning ikkinchi bo‘limida o‘simliklarning morfobiologik xususiyatlarini o‘rganish natijalari keltirilgan. O‘rganilgan turlar umrining birinchi-ikkinchi yilida monopodial shoxlanishi, uchinchi (*R. officinalis*da to‘rtinchi) yildan asosiy (I tartibli) va II tartibli novdalarda gullash yakunlanishi bilan simpodial shoxlanishga o‘tishi aniqlangan. Bu holat keyinchalik yangidan hosil bo‘lgan har bitta novdada takrorlangan. *Th. vulgaris*ning bo‘yi 1-2 yoshida asosiy (I tartibli) novda hisobidan mos holda $28,8 \pm 0,6$ va $38,7 \pm 0,6$ sm, 3-4 yoshida III tartibli novdalari hisobiga $21,8 \pm 0,2$ sm bo‘lishi aniqlangan (*I-jadval*). *H. officinalis*ning bo‘yi 1-2 yoshida I tartibli novda hisobiga mos holda $63,1 \pm 2,1$ va $69,8 \pm 0,6$ sm, 3 yoshida II tartibli novdalari hisobiga $42,6 \pm 0,3$ sm, 4 yoshida III-tartibli novdalari hisobiga $39,5 \pm 0,3$ sm bo‘lishi aniqlangan. *S. officinalis*ning bo‘yi 1-2 yoshida I tartibli novda hisobiga mos holda $33,1 \pm 1,0$ va $64,9 \pm 1,9$ sm, 3 yoshida II tartibli novdalari hisobiga $22,2 \pm 0,1$ sm, 4 yoshida III tartibli novdasi hisobiga $20,8 \pm 0,2$ sm bo‘lishi aniqlangan. *R. officinalis*ning bo‘yi esa 1-2-3 yoshida I tartibli novda hisobiga mos holda $37,0 \pm 0,3$, $64,4 \pm 0,4$ va $96,6 \pm 0,4$ sm, 4 yoshida II tartibli novdalar hisobiga mos holda $62,6 \pm 0,4$ sm, 5 yoshida III tartibli novdalari hisobiga $54,2 \pm 0,5$ sm bo‘lganligi aniqlangan. Barcha turlarda novdalar tartibining ortishi bilan ulardagi bo‘g‘imlar sonining kamayib borishi kuzatilgan. *Th. vulgaris* ning 2-4 yoshida, *S. officinalis* va *H. officinalis*ning 3 yoshida, *R. officinalis* ning 4 yoshida eng ko‘p biomassa to‘plashi aniqlangan.

Bobning uchinchi bo‘limida o‘simliklarni fenologik kuzatish natijalari keltirilgan. Tadqiqot olib borilgan yillar mobaynida *Th. vulgaris*, *H. officinalis* va *S. officinalis*ning vegetatsiyasi fevralning uchinchi o‘nkunligida boshlangan. *Th. vulgaris* va *S. officinalis*da martning ikkinchi yarmidan g‘unchalar hosil bo‘lgan, 10 kun o‘tgandan so‘ng gullash boshlangan. *H. officinalis* da aprelning uchinchi o‘nkunligidan g‘unchalash, 20 kun o‘tib gullash boshlangan. Iyunning birinchi kunlarida *S. officinalis*ning, ikkinchi o‘nkunligi oxirlarida *Th. vulgaris*ning, avgustning ikkinchi o‘nkunligi oxirida *H. officinalis*ning gullashi yakunlangan. Gullash boshlangandan 17-25 kun o‘tib mevalar shakllanishi boshlangan. *Th. vulgaris* va *S. officinalis*da kuzgacha, *H. officinalis*da sentabrning uchinchi o‘n kunligigacha mevalar yetilgan. Vegetatsiya *Th. vulgaris* va *S. officinalis*da noyabrning boshida, *H. officinalis*da ikkinchi o‘n kunligida yakunlanadi. Uchala tur ham qish oylarini vegetativ holatda o‘tkazadi.

*R. officinalis*ning vegetatsiyasi O‘rtayer dengizi subtropiklaridagi butazorlarda o‘suvchi o‘simliklarga xos bo‘lib, avgust oyida boshlanadi. 2017-2020 yillar mobaynidagi fenologik kuzatishlar uning vegetasiyasini boshlanishi avgust oyida

**Qarshi vohasi sharoitida Lamiaceae oilasiga mansub ayrim dorivor turlarning
morfologik ko'rsatkichlari, n=10 (2016-2020 yy.)**

Yoshi	Novdalar uzunligi, sm					Bo'g'imlar soni					To'pgullar soni					Gullagan novdalar soni
	Novdalar tartibi															
	I	II	III	IV	V	I	II	III	IV	V	I	II	III	IV	V	
<i>Thymus vulgaris</i>																
1	28,8±0,6	14,9±0,2	4,5±0,1	1,7±0,05	-	16,1±0,2	9,2±0,2	2,6±0,2	-	-	1	8,4±0,2	-	-	9,4±0,2	
2	38,7±0,6	26,4±0,5	14,0±0,5	9,3±0,4	2,7±0,3	22,1±0,3	15,6±0,2	9,1±0,2	5,6±0,2	1,2±0,1	-	11,2±0,2	74,3±0,3	20,3±0,3	105,7±0,3	
3	-	-	21,8±0,2	18,5±0,1	7,2±0,2	-	-	13,3±0,2	11,0±0,2	5±0,2	-	-	37,7±0,3	73,2±0,3	118,5±0,3	
4	-	-	21,7±0,1	19,3±0,2	17,2±0,2	-	-	13,5±0,2	11,9±0,2	10,1±0,2	-	-	26,5±0,2	64,6±0,3	110,6±0,3	
<i>Hyssopus officinalis</i>																
1	63,1±2,1	16,7±0,1	7,2±0,2	-	-	31,4±0,3	8,2±0,2	3,4±0,2	-	-	-	-	-	-	-	
2	69,8±0,6	28,1±0,2	22,8±0,1	6,5±0,2	-	36,4±0,2	15,2±0,2	11,8±0,2	3,5±0,2	-	1	20,8±0,4	16,3±0,3	-	38,5±0,6	
3	70,1±0,4	42,6±0,3	34,6±0,3	18,3±0,2	8,2±0,2	36,6±0,3	23,5±0,3	17,4±0,3	10,3±0,3	3,6±0,2	-	12,6±0,3	49,3±0,5	26,9±0,4	88,2±0,4	
4	-	-	39,5±0,3	19,2±0,2	19,6±0,2	-	-	20,7±0,5	10,4±0,3	10,9±0,3	-	-	17,6±0,4	44,1±0,4	79,7±0,5	
<i>Sabia officinalis</i>																
1	33,1±1,0	16,2±0,2	5,2±0,2	-	-	14,7±0,2	4,9±0,2	1,4±0,2	-	-	-	-	-	-	-	
2	64,9±1,9	22,2±0,1	18,2±0,2	7,3±0,2	-	25,8±0,3	11,2±0,2	5,5±0,2	3,4±0,2	-	1	6,9±0,3	9,3±0,4	-	16,7±0,5	
3	64,7±1,2	22,5±0,2	20,8±0,2	18,7±0,1	8,2±0,2	25,8±0,3	11,4±0,2	8,6±0,2	8,5±0,2	3,6±0,2	-	3,6±0,2	148,4±0,3	68,5±0,3	219,8±0,4	
4	-	-	20,5±0,2	19,2±0,2	19,3±0,2	-	-	11,2±0,2	8,6±0,2	7,6±0,2	-	-	62,7±0,3	77,6±0,3	195,9±0,4	
<i>Rosmarinus officinalis</i>																
1	37,0±0,3	18,1±1,5	1,6±0,1	-	-	23,3±0,2	11,7±0,2	-	-	-	-	-	-	-	-	
2	64,4±0,4	44,4±0,4	32,9±0,4	17,5±0,4	-	41,1±0,2	26,2±0,4	21,2±0,4	10,8±0,3	-	-	-	-	-	-	
3	96,6±0,4	62,2±0,5	48,4±0,3	32,3±0,5	28,0±0,4	61,4±0,3	37,4±0,4	28,9±0,6	20,9±0,5	16,4±0,3	1	52,9±0,6	-	-	53,9±0,6	
4	96,7±0,3	62,6±0,4	54,2±0,5	48,7±0,4	43,1±0,5	61,4±0,3	37,6±0,3	33,6±0,4	28,8±0,6	24,1±0,4	-	43,9±0,4	169,5±0,5	31,6±0,4	245,3±0,5	
5	-	-	55,4±0,4	51,1±0,4	43,7±0,4	-	-	32,8±0,4	30,6±0,5	25,5±0,4	-	-	68,7±0,5	84,8±0,5	208,7±0,5	

havo haroratining pasayishiga bog'liq ekanligini ko'rsatgan. Jumladan, 2018-yilda 21-avgustda, 2019-yilda 13-avgustda boshlangan. Sentabr oxiri – oktabrning boshida g'unchalash, 10-15 kun o'tib gullash boshlangan. Qish oylarida g'unchalarning shakllanishi va ochilishi sekin, mart oyining boshidan jadal kechadi. May oyida havo harorati 30 °C dan oshishi gullashning yakunlanishiga sabab bo'ladi. Mevalarning shakllanishi fevral oyi oxiridan boshlanadi va iyun oyining birinchi yarmida o'simlikning tinim davriga ketishi bilan ularning yetilishi yakuniga yetadi.

Shunday qilib, Qarshi vohasi sharoitida *Th. vulgaris*, *H. officinalis* va *S. officinalis* bahorgi-yozgi-kuzgi, *R. officinalis* kuzgi-qishki-bahorgi fenoritm guruhiga mansub ekan.

Dissertatsiyaning “**Lamiaceae oilasi vakillarining antekologiyasi**” deb nomlangan uchinchi bobida Qarshi vohasi sharoitida o'simliklarning gullash va urug' hosil qilish biologiyasini o'rganish natijalari keltirilgan bo'lib, bob uchta bo'limdan iborat. Birinchi bo'limda o'rganilgan turlar gullarining morfologik tavsifi keltirilgan. Unga ko'ra gullar ikki jinsli, zigomorf, bezli tukchalar bilan qoplangan. Kosachabarglari besh tishchali. Gultojibarglari ikki labli, ustki labi ikkita gultojbargdan vujudga kelgan, ostki lab pastga egilgan, uchta gultojibargdan tuzilgan. Urug'chisi 1 ta, tugunchasi ustki, to'rt uyali, to'rt urug'kurtakli. Changchi iplari och binafsharang, silliq, gultojibargning toraygan asosiga birikib o'sgan. Changdoni buyraksimon. To'pgulda gullarning ochilishi akropetal tarzda boradi va gullar arilar vositasida changlanadi. Mevasi senobiy, 4 ta kosachabargning birikibo'sishidan hosil bo'lgan yong'oqcha. Changchilar *Th. vulgaris* va *H. officinalis* da 4 tadan bo'lib, oldingi 2 tasi uzunroq, orqadagi 2 tasi biroz kalta. *S. officinalis* va *R. officinalis*larda changchilar soni 2 tadan. *Th. vulgaris*ning ochilgan gullari och pushti, boshqalarida ko'kimtir binafsha rangda. *S. officinalis*ning gullari nisbatan yirik (18,2±0,59 mm) bo'lib, shingilsimon to'pgulda birikkan. Eng mayda gul *Th. vulgaris*da bo'lib (4,8±0,13 mm) murakkab boshchasimon to'pgulda birikkan.

Bobning ikkinchi bo'limi o'simliklarning gullash biologiyasi va dinamikasiga bag'ishlangan. Qarshi vohasi sharoitida *Th. vulgaris* birinchi yili 8-10 ta, ikkinchi yili 90-140 ta, uchinchi yili 100-120 ta to'pgul hosil qilganligi, bitta gulning 3-4 kun ochilib turishi, bitta to'pgulning 15-18 kun, bir tup o'simlikning barcha gullari 78-84 kun davomida ochilib turishi aniqlangan. To'pguldagi dastlabki gul soat 6³⁰ da ochila boshlaydi, soat 8⁰⁰ va 11⁰⁰ oralig'ida eng ko'p gul ochilishi kuzatiladi. Gullash davri esa soat 13⁰⁰ gacha davom etadi. Bun kun mobaynida 208 tagacha gul ochilishi aniqlangan. Yalpi gullash davrida gullash biroz ertachi, ya'ni soat 6⁰⁰ dan boshlanishi, soat 7⁰⁰ va 10⁰⁰ oralig'ida yuqori cho'qqiga yetishi va soat 13⁰⁰ gacha davom etishi aniqlangan (*2-rasm, A*). Bir kun mobaynida bir tup o'simlikda jami 957 dona gul ochilganligi qayd qilingan. Gullash yakunida gullarning ochilishi yanada ertaroq boshlangan, sutkalik gullash dinamikasi gullash boshlanishidagi holatni takrorlagan, ammo bir kunda ochiladigan gullar miqdori keskin kamayib, ba'zida 16 tani tashkil qilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, o'rganilgan turlarda gullash tongda havo harorati +9-10 °C ga yetganda boshlanishi, qiyg'os ochilish soat 8⁰⁰ dan 11⁰⁰ gacha davom etishi, bunda havo harorati +15-20 °C, nisbiy namlik 45-50 % ni tashkil qilganligi, gullashning avj pallasi soat 9⁰⁰ da qayd qilinganligini ko'rsatish





mumkin. Havo haroratining 20 °C dan ko'tarilishi, nisbiy namligining 40 % dan pastga tushishi bilan ochilayotgan gullarning soni sezilarli kamayishi, peshinda issiqlik ko'tarilishi bilan gullashning yakunlanishi kuzatilgan.

Qarshi vohasi sharoitida *H. officinalis* vegetatsiyasining ikkinchi yilida generativ davrga o'tib 32-38 ta, uchinchi yili 74-90 ta, to'rtinchi yili 72-86 ta to'pgul hosil qilishi aniqlangan. Bitta gulning 2-3 kun ochilishi, bitta to'pgulning 25-30 kun, bir tup o'simlikning 87-95 kun gullashi qayd qilingan. Gullashning boshlanishi may oyining ikkinchi yarmida, yoppasiga gullash may oyining oxiri – iyun oyining boshiga to'g'ri kelgan va gullash davomiyligi 97-102 kunni tashkil qilgan. Dastlabki gulning ochilishi tongda – soat 5⁰⁰ da boshlanadi, gullarning ochilishi bahorda soat 17⁰⁰ gacha, yozda 15⁰⁰ gacha davom etadi. Qiyg'os gullash soat 11⁰⁰- 3⁰⁰ oralig'ida, bunda eng avj gullash payti 13⁰⁰ da qayd qilingan (2-rasm, B). Bir kun davomida 305 tagacha gul ochilgan. Gullar ochilish maromi bilan havo harorati va nisbiy namlik o'rtasida korrelyatsion bog'lanish kuzatilmagan.

S. officinalis ham vegetatsiyasining ikkinchi yilida generativ davrga o'tib 8-10 ta, uchinchi yili 150-200 ta, to'rtinchi yili 120-180 ta to'pgul hosil qilishi kuzatilgan. Bunda bitta gulning 3-4 kun ochilishi, bitta to'pgulning 20-25 kun, bir tup o'simlikning 52-59 kun davomida gullab turishi aniqlangan. Gullash aprel oyining birinchi o'n kunligida boshlangan. 10 kundan keyin yoppasiga gullash boshlangan va bir oy davom etgan. Gullash davri 61-67 kunni tashkil etgan. To'pguldagi dastlabki gul soat 6³⁰ va 7⁰⁰ oralig'ida ochilishi va gullash davri 19⁰⁰ gacha davom etishi qayd qilingan. Gullarning qiyg'os ochilishi soat 8⁰⁰ dan 11⁰⁰ gacha bo'lgan vaqt oralig'ida kuzatilgan va soat 11⁰⁰ da – havo harorati +30 °C bo'lganda eng yuqori cho'qqiga yetgan (2.D-rasmga qarang). Bir kunda 468 tagacha gul ochilishi qayd etilgan. Harorat +35 °C dan oshganda gullashning to'xtashi kuzatilgan.

R. officinalis vegetatsiyasining uchinchi yilida generativ davrga o'tib 30-50 ta, to'rtinchi yili 200-245 ta, beshinchi yili 180-210 ta to'pgul hosil qilgan. Bitta gulining 3-4 kun ochilib turishi, bitta to'pgulning 20-30 kun, bir tup o'simlikning 76-90 kun gullashi qayd etilgan. Gullash oktabr oyining ikkinchi yarmidan boshlanib, o'simlik mart-aprel oylarida yoppasiga gullagan. Gullash davri 197-221 kun davom etgan. Mart oyining dastlabki kunlarida sutkalik gullash maromini o'rganish natijasida dastlabki gulning soat 8⁰⁰ da ochilishi aniqlangan. Gullash soat 11⁰⁰ da yuqori cho'qqiga yetib, soat 18⁰⁰ da yakuniga yetgan (2.E-rasmga qarang). *R. officinalis* gullari harorat +2 °C dan +30 °C gacha, havo nisbiy namligi 25 % dan yuqori bo'lganda ochilishi aniqlangan. Bir tup o'simlikda bir kunda 321 tagacha gul ochilgan.

Uchinchi bobning uchinchi bo'limida urug' hosil bo'lish biologiyasini o'rganish natijalari keltirilgan. O'rganilgan turlarning urug'lari 4 ta urug'kurtakli senokarp (senobiy) meva ichida yetiladi. *Th. vulgaris* ning urug'i to'q jigarrang, juda mayda (0,92x0,72 mm), yumaloq. *H. officinalis* ning urug'i qo'ng'ir tusda, mayda (2,02x1,03mm) cho'zinchoq-tuxumsimon. *S. officinalis* ning urug'i qo'ng'ir jigarrang tusda, mayda (2,74x2,21 mm), uzaygan ovalsimon. *R. officinalis* L. ning urug'i sarg'ish-qo'ng'irrang tusda, mayda (2,42x1,26 mm), cho'zinchoq-tuxumsimon. Barcha turlarning urug'larining sirti silliq.



2-rasm. O'rganilgan turlarning sutkalik gullash maromi (2016-2017 y.y.)

A - *Thymus vulgaris*, B - *Hyssopus officinalis*, D - *Salvia officinalis*, E - *Rosmarinus officinalis*

Umrining birinchi yili gullagan *Th. vulgaris* 2 yoshidan boshlab sifatli urug‘lar berishi, bunda urug‘larining mahsuldorligi 40,0 % ni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich o‘simlik yoshining oshib borishi bilan ko‘tarilishi, 3 yoshida u 48,5 % ga, 4 yoshida esa 50,0 % ga yetishi qayd qilingan (2-jadval).

2-jadval

Qarshi vohasi sharoitida Lamiaceae oilasiga mansub ayrim dorivor turlarning urug‘ mahsuldorligi, (n=10) (2018-2021 y.y.)

O‘simlik yoshi	To‘pgulda-gi gullar soni, dona	Mevada yetilgan urug‘lar soni, dona	PUM	HUM	UMK, %	1000 dona urug‘ og‘irligi, g
<i>Thymus vulgaris</i>						
2 ëm	122,4±3,4	1,6±0,26	489,6±13,4	195,8±5,4	40,0	0,24±0,013
3 ëm	127,8±4,6	2,1±0,27	511,2±18,2	248,5±3,6	48,5	0,26±0,015
4 ëm	129,1±4,4	2,0±0,39	516,6±17,5	258,3±8,7	50,0	0,27±0,017
<i>Hyssopus officinalis</i>						
2 ëm	118,3±23,1	1,5±0,34	473,2±92,6	177,0±34,7	37,5	1,20±0,040
3 ëm	152,8±18,5	2,1±0,31	611,2±73,9	320,9±38,8	52,5	1,32±0,022
4 ëm	133,5±13,2	2,1±0,23	534,0±52,6	280,4±27,6	52,5	1,32±0,021
<i>Salvia officinalis</i>						
2 ëm	62,7±2,4	2,4±0,30	250,8±9,8	150,5±5,9	60,0	7,21±0,035
3 ëm	105,3±3,4	2,7±0,30	421,2±13,6	284,9±5,6	67,0	7,42±0,046
4 ëm	101,4±3,9	2,8±0,32	410,8±14,2	289,4±9,2	70,0	7,43±0,051
<i>Rosmarinus officinalis</i>						
3 ëm	36,9±5,5	2,9±0,27	147,6±21,9	107,0±15,9	72,5	0,87±0,020
4 ëm	45,3±5,5	3,4±0,22	181,2±22,1	154,0±18,8	85,0	1,24±0,020
5 ëm	48,2±5,7	3,6±0,22	184,8±26,1	166,2±23,5	90,0	1,49±0,023

H. officinalis urug‘ining mahsuldorligi 2 yoshida 37,5 %, 3-4 yoshida 52,5 % dan bo‘lishi aniqlangan. *S. officinalis* da urug‘ mahsuldorligi birmuncha yuqori bo‘lib, 2 yoshda u 60,0 %, 3 yoshida 67,0 %, 4 yoshida 70,0 % ekanligi qayd qilingan. Ushbu turlarda o‘simlik yoshining oshishi bilan ulardagi gullar soni va urug‘lar miqdori biroz kamayganligi kuzatilgan. *R. officinalis* gullashining dastlabki yilidayoq, ya‘ni 3 yoshidan boshlab sifatli urug‘lar hosil qilib, urug‘larning mahsuldorligi ham ancha yuqori, ya‘ni 72,5 % ni tashkil qilishi aniqlangan. O‘simlikning 4 yoshida bu ko‘rsatkich 85,0 % ga, 5 yoshida esa 90,0 % ga yetganligi kuzatilgan. Shunday qilib, o‘rganilgan turlar urug‘larining mahsuldorlik ko‘rsatkichi va ularning massasi o‘simlikning yoshi ortib borgani sari ko‘tarilib borganligi kuzatildi. Bu holat ayniqsa *R. officinalis* da yaqqol namoyon bo‘ldi.

Tadqiqotlar olib borish uchun o‘simliklar kolleksiyasi tashkil qilish jarayonida Toshkent shahridan keltirilgan urug‘lar puch ekanligi aniqlandi. Xorijdan keltirilgan urug‘lardan kolleksiya yaratildi va kuzatish ishlari olib borildi. Qarshi sharoitida ko‘paytirilgan o‘simliklarda unuvchan urug‘ hosil bo‘lishi kuzatildi.

Olib borilgan tadqiqotlarda Qarshi sharoitida qishning iliq kelishi o‘rganilgan turlarning reproduktiv rivojlanishi uchun qulay ekanligi isbotlandi. Bu holatni

R. officinalis misolida tushuntirish mumkin. Bu o'simlikning vegetatsiya davri kuz-qish-bahor oylariga to'g'ri keladi. Ushbu tur yovvoyi holda O'rtayer dengizi atrofidagi subtropiklarning tog' oldi mintaqasidagi butazorlarda dengiz sathidan 0-400 m balandliklarda o'sadi. Bu hududda qish oylarining iliq bo'lishi kuzatiladi (Drozdov, 1989) va u *R. officinalis* ning gullashi va urug' hosil qilishi uchun qulay hisoblanadi.

Boshqa tadqiqotchilar tomonidan Toshkent shahri A.Rehder shkalasi bo'yicha IV-iqlim zonasiga, Janubiy O'zbekiston, jumladan, Qarshi vohasi ham V-iqlim zonasiga mansubligi qayd qilingan (Rusanov, 1974; Yoziyev, 2001). Lamiaceae oilasining vakillari misolida bu fikrlar yana bir marta o'z tasdig'ini topdi deb o'ylaymiz.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Lamiaceae oilasi ayrim vakillarini ko'paytirish, introduksion baholash va ulardan amaliyotda foydalanish**" deb nomlangan bo'lib, uchta bo'limdan iborat. O'rganilgan o'simliklarni ko'paytirishning samarali usullarini aniqlashga bag'ishlangan birinchi bo'limida urug'larini ekishning optimal haroratini, urug'larning unuvchanlik darajasini laboratoriya va dala sharoitlarida o'rganish natijalari keltirilgan. Barcha turlarning urug'lari unishi uchun optimal harorat 20-22 °C ekanligi aniqlandi (3-jadval).

Laboratoriya sharoitida *Th. vulgaris*, *H. officinalis*, *S. officinalis* urug'lari 3-4 kundan so'ng, *R. officinalis* ning urug'lari 10 kundan so'ng unib chiqqan boshlashi

3-javdal

O'simliklar urug'larining unuvchanlik ko'rsatkichlari

O'simlik nomi	Laboratoriya sharoitida			Dala sharoitida	
	harorat, °C	urug' unishi davomiyligi, kun	Unuvchanlik, %	yillar	Unuvchanlik, %
<i>Thymus vulgaris</i>	16-17	3-10	42	2016	58
